# RAQAMLI ASRDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

**Maxmudova Shohsanam**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy
huquqshunoslik fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24133347

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli davrda iste'molchi huquqlarini himoya qilishning dolzarb mexanizmlari, muammolari va yechimlar keng qamrovli tahlil etiladi. Raqamli bozorlarning jadal rivojlanishi, elektron tijorat va ma'lumotlarga asoslangan biznes modellarining kengayishi bilan birga iste'molchilar shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, onlayn firibgarlik, algoritmik manipulyatsiya va shaffof bo'lmagan shartnoma shartlari kabi yangi tahdidlarga duch kelmoqda. Maqolada xalqaro-huquqiy hujjatlar, ilmiy manbalar va amaliy holatlar qiyosiy tahlil qilingan. Yevropa Ittifoqining GDPR va Iste'molchi huquqlari direktivi, AQShning FTC qonunchiligi, Budapesht konvensiyasi va BMT ko'rsatmalari, shuningdek O'zbekistonning raqamli transformatsiya siyosati o'rganilgan. Maqola natijalarida mavjud qonunchilik bazasini raqamli muhitning yangi talablariga moslashtirish va xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslangan. Va yakunida milliy qonunchilgimizga tatbiq etilishi zarur bo'lgan normalar hamda tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati uchun amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** iste'molchi huquqlari, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi, elektron tijorat, onlayn firibgarlik, huquqiy mexanizmlar, GDPR, raqamli O'zbekiston.

## I. KIRISH

Raqamli texnologiyalarning hayotimizning barcha sohalariga jadal kirib kelishi iste'molchi munosabatlari tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Bir paytlar do'konlarning o'zida amalga oshiriladigan xaridlar bugun bir necha soniya ichida smartfonlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarish o'zi bilan birgalikda faqat qulaylik emas, balki yangi xavf-xatarlar ham olib kelmoqda. Xalqaro savdo va raqamli iqtisodiyot bo'yicha BMT konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, jahon elektron tijorat hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda va bu ko'rsatkich COVID-19 pandemiyasidan keyin yanada tezlashdi.

Raqamli muhitda iste'molchilar nafaqat yuqori sifatli xizmat va mahsulotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda, balki bir qator yangi xatarlarga ham duch kelmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy to'plash va ulardan foydalanish, onlayn firibgarlik, ko'zga ko'rinmas reklama usullari va murakkab shartnoma shartlari — bularning barchasi zamonaviy iste'molchining huquqlariga tahdid soluvchi omillar hisoblanadi. Cambridge Analytica mojarosi buning yorqin namunasidir: millionlab Facebook foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlari ruxsatsiz siyosiy maqsadlarda ishlatildi.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakat barcha

tarmoqlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ammo bu jarayonning jadal suratlari bilan qonunchilik bazasining rivojlanishi o'rtasidagi farq iste'molchilar huquqlarining himoyasida muhim bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolaning mazmuni raqamli asrda iste'molchi huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini tahlil etish, asosiy muammolarni aniqlash va samarali yechimlar taklif etishdir.

## II. METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda qiyosiy huquq metodologiyasidan foydalanilgan. Google Scholar, Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalari asosida “consumer protection”, “digital rights”, “cybersecurity”, “international law and cyberspace” tushunchalari bo'yicha 2018–2025 yillar davomida nashr etilgan 50 dan ortiq ilmiy maqola va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Maqola to'rtta asosiy manbaga tayanadi: birinchidan, Pattanayak va boshqalar tomonidan nashr etilgan “Consumer Protection Laws in the Digital Era:

Challenges & Future Trends” maqolasi[1]; ikkinchidan, Tsagourias va Buchan (2021) tahriridagi “Research Handbook on International Law and Cyberspace” to'plami[2]; uchinchidan, Yevropa Komissiyasining virtual dunyo iste'molchi huquqlari bo'yicha hujjati[3]; to'rtinchidan, “Safeguarding Consumer Rights in the Digital Age ” nomli ResearchGate maqolasi[4]. Xorijiy tajribani o'rganish orqali mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar shakllantirish ushbu tadqiqotning asosiy yondashuvidir.

## III. NATIJALAR

### A. Raqamli asrda iste'molchi huquqlarining asosiy muammolari

**Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli muhitda iste'molchilar bir necha asosiy muammo guruhlari bilan yuzlashmoqda:**

**1. Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik.** Raqamli iqtisodiyotda har bir onlayn harakat ma'lumot izini qoldiradi. Iste'molchilar xaridlar, izlanishlar va ijtimoiy tarmoqlardagi faolliklari orqali ulkan hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni tarqatadi. GDPR kabi me'yorlar shaffoflik, rozilik va ma'lumotlarni minimallash tamoyillarini ta'kidlaydi.[5] Kiberjinoyatlar ko'lami ham tezlik bilan o'sib bormoqda: AQSh Adliya statistikasi byurosining ma'lumotlariga ko'ra, yagona voqeada 1,1 million nafar amerikalik shaxsiy ma'lumotlaridan firibgarlik yo'li bilan foydalanilgan, jami moliyaviy yo'qotish 15,4 milliard dollarga yetgan.

**2. Raqamli shartnomalar va shaffoflik muammosi.** Onlayn xizmatlar “clickwrap” yoki “browsewrap” shaklida uzun, murakkab shartnomalar taqdim etadi. Iste'molchilar

[1] Pattanayak, M., Shankar, A. U., Sahay, E. B., Kamalaveni, M. S., & Jayapriya, K. (2025). Consumer Protection Laws in the Digital Era: Challenges & Future Trends. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5), 3063–3073.

[2] Tsagourias, N., & Buchan, R. (Eds.). (2015). Research Handbook on International Law and Cyberspace. Edward Elgar Publishing. https://doi.org/10.4337/9781782547396

[3] European Commission. (2026). Consumer protection in virtual worlds. Digital Strategy. https://digital-strategy.ec.europa.eu/policies/virtual-worlds-consumer-protection

[4] Safeguarding Consumer Rights in the Digital Age: Challenges and Strategies. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/382849320

[5] Pattanayak, M., Shankar, A. U., Sahay, E. B., Kamalaveni, M. S., & Jayapriya, K. (2025). Consumer Protection Laws in the Digital Era: Challenges & Future Trends. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5), 3063–3073.

ko'pincha o'zlarining muhim huquqlaridan bilmagan holda voz kechadilar. Tadbirkorlar va iste'molchilar o'rtasidagi axborot assimetriyasi huquqiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.[6]

**3. Onlayn firibgarlik va aldov.** Elektron tijoratning kengayishi bilan birga fishing, soxta onlayn bozorlar va kredit karta firibgarliklari soni ham ko'payib bormoqda. Dark patterns ya'ni, iste'molchi xatti-harakatini manipulyatsiya qiluvchi interfeys dizayni adolat tamoyillariga zid bo'lgan yangi muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Amazon va Alibaba kabi yirik platformalarda soxta tovarlar muammosi xalqaro miqyosda dolzarb masalaga aylangan.[7]

**4. Chegaralararo e-tijorat va yurisdiktsiya muammolari.** Chegaralararo onlayn tranzaktsiyada iste'molchi, sotuvchi va platforma turli davlatlarda joylashgan bo'lishi mumkin, bu esa qaysi huquqiy tizimning tatbiq etilishini va qaysi sudning vakolat doirasiga kirishini aniqlashni qiyinlashtiradi.

**B.** Kiberhujumlarning turlari va tahdidlar

Masofaviy ish shaklining keng tarqalishi kiberxavfsizlik sohasida yangi huquqiy muammolarni vujudga keltirdi. Masofaviy ishchilar duch keladigan asosiy kiberhujumlar turlariga quyidagilar kiradi:

- **Fishing hujumlari** - tajovuzkorlar soxta shaxslar sifatida ko'rinib, login ma'lumotlari yoki moliyaviy ma'lumotlarni o'g'irlashga urinadi.
- **Zararli dasturlar (malware)** - tizimga ruxsatsiz kirish yoki ma'lumotlarni yo'q qilish uchun foydalaniladigan viruslar va troyan dasturlari.
- **To'lovtalab dasturlar (ransomware)** - foydalanuvchining muhim ma'lumotlariga kirishni bloklaydi va to'lov talab qiladi.
- **DDoS hujumlari** - tarmoq yoki tizim katta hajmdagi trafik bilan to'ldiriladi, normal ishlashi buziladi.
- **Ilg'or doimiy tahdidlar (APT)** - tajovuzkorlar tizimga uzoq vaqt aniqlanomasdan kirib, muhim ma'lumotlarni o'g'irlaydi.

2020-yilda Zoom platformasi “Zoom-bombing” muammosiga duch keldi. Shu yili SolarWinds hujumi AQShning bir qancha hukumat idoralari va xususiy kompaniyalariga ta'sir ko'rsatdi tajovuzkorlar dasturiy ta'minotdagi zaiflikdan foydalanib tizimlarga ruxsatsiz kirishga muvaffaq bo'ldi.

**C.** Mavjud xalqaro huquqiy mexanizmlar

**BMT Iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatmalari (UNGCP, 2015).** Bu ko'rsatmalar iste'molchi ta'limi, mahsulot xavfsizligi va muomala mexanizmlari kabi sohalarda global asos yaratadi. Biroq ular majburiy kuchga ega emas va milliy qonunchilik orqali tatbiq etilishi talab etiladi. OECD va UNCTAD e-tijoratda iste'molchini himoya qilish bo'yicha tavsiyalar chiqaradi, ammo ularning majburiy emasligi global yaqinlashuvni sekinlashtirmoqda.

---

[6] Pattanayak, M., Shankar, A. U., Sahay, E. B., Kamalaveni, M. S., & Jayapriya, K. (2025). Consumer Protection Laws in the Digital Era: Challenges & Future Trends. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5), 3063–3073.

[7] Safeguarding Consumer Rights in the Digital Age: Challenges and Strategies. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/382849320

**Yevropa Ittifoqining iste'molchi huquqlari Direktivasi (2011/83/EU).** Bu direktiva Yevropa Ittifoqi bo'ylab iste'molchi huquqlarini uyg'unlashtirish maqsadini ko'zlaydi. Direktiva elektron tijorat orqali amalga oshirilgan xaridlardan 14 kun ichida voz kechish huquqini kafolatlaydi. Raqamli Xizmatlar to'g'risidagi qonun (DSA) esa onlayn platformalar uchun yangi javobgarlik tizimini joriy etib, firibgarlik va yolg'on reklama kabi noqonuniy kontentni samarali olib tashlash mexanizmini belgilaydi.[8]

**Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidasi (GDPR, 2016).** Bu qoida EU fuqarolari uchun shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan kirish, to'g'rilash, o'chirish va ko'chirish huquqlarini kafolatlaydi. GDPR muvofiqligini buzgan tashkilotlar yillik global daromadining 4foizi yoki 20million yevroga teng jarima to'lashlari mumkin.[9]

**Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Konvensiya (Budapesht konvensiyasi, 2001).** 2001-yil 23-noyabrda 30 ta davlat tomonidan imzolangan va 2004-yilda kuchga kirgan ushbu konvensiya kiberjinoyatlarga qarshi xalqaro hamkorlikni tartibga soluvchi birinchi muhim ko'p tomonlama shartnoma hisoblanadi. Terrorchilik, irqchilik va ksenofobik kiberjinoyatlarni qamrab oluvchi qo'shimcha protokollar 2006-yilda kuchga kirgan.[10]

**AQSh Federal Savdo Komissiyasi Qonuni (FTC Act).** Bu qonun FTCga savdodagi adolatsiz va aldovchi harakatlardan, shu jumladan yolg'on reklama va firibgarlik operatsiyalaridan iste'molchilarni himoya qilish vakolatini beradi. FTC raqamli muhitdagi ko'plab kompaniyalarga nisbatan choralar ko'rgan.[11]

**D.** Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillari

Ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: **ma'lumotlar minimizatsiyasi** (faqat zaruriy va tegishli ma'lumotlarni to'plash); **maqsad cheklovi** (ma'lumotlarni faqat belgilangan qonuniy maqsadlarda ishlatish); **aniqlik** (ma'lumotlar to'g'ri, to'liq va yangilangan bo'lishi); **xavfsizlik** (ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish); **hisobdorlik** (ma'lumotlarni boshqaruvchilar qoidalarga rioya qilganligini isbotlashi); **shaffoflik** (iste'molchilar o'z ma'lumotlarining qanday ishlatilishi haqida xabardor bo'lishi); **rozilik (iste'molchilar ma'lumotlarni qayta ishlashga rozi bo'lish yoki rad etish huquqiga ega bo'lishi); ko'chirish huquqi (iste'molchilar o'z ma'lumotlarini bir xizmat ko'rsatuvchidan ikkinchisiga o'tkazish huquqiga ega bo'lishi); va kamsitmaslik (iste'molchilar ma'lumot tanlovi asosida kamsitilmasligi).**[12]

Bu tamoyillar bilan birga ma'lumotlarni himoya qilishdagi asosiy kamchiliklar ham mavjud: xabardorlik va ta'lim yetishmasligi (ko'pchilik iste'molchilar o'z ma'lumot huquqlaridan bexabar); nazorat va ijro yetishmasligi; uyg'unlik va muvofiqlashtirish yetishmasligi (turli mamlakatlarda turlicha, ba'zan kollizion); va innovatsiyaga

[8] European Commission. (2026). Consumer protection in virtual worlds. Digital Strategy. https://digital-strategy.ec.europa.eu/policies/virtual-worlds-consumer-protection

[9] Pattanayak, M., Shankar, A. U., Sahay, E. B., Kamalaveni, M. S., & Jayapriya, K. (2025). Consumer Protection Laws in the Digital Era: Challenges & Future Trends. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5), 3063–3073.

[10] Tsagourias, N., & Buchan, R. (Eds.). (2015). Research Handbook on International Law and Cyberspace. Edward Elgar Publishing. https://doi.org/10.4337/9781782547396

[11] Pattanayak, M., Shankar, A. U., Sahay, E. B., Kamalaveni, M. S., & Jayapriya, K. (2025). Consumer Protection Laws in the Digital Era: Challenges & Future Trends. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5), 3063–3073.

[12] Safeguarding Consumer Rights in the Digital Age: Challenges and Strategies. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/382849320

moslashuvchanlik yetishmasligi (raqamli muhitning tez o'zgarishi bilan qonunchilik rivojlanishi o'rtasidagi farq).

## IV. MUHOKAMA

### A. Global huquqiy tizimlarning qiyosiy tahlili

Mavjud huquqiy mexanizmlarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi raqamli iste'molchi huquqlarini himoya qilish sohasida eng rivojlangan normativ tizimga ega. GDPR, DSA va DMA - Raqamli Bozorlar to'g'risidagi qonun bir-birini to'ldiruvchi hujjatlar sifatida iste'molchi huquqlarining to'liq qamrab oladi. Yevropa Komissiyasining virtual dunyo iste'molchi huquqlari bo'yicha hujjatida ta'kidlanishicha, EU doirasi to'rt asosiy elementdan iborat: mahsulot xavfsizligi, iste'molchi huquqlari, iste'molchini himoya qilish va iste'molchini kuchaytirish.[13]

AQShda tarmoqqa asoslangan, ijroiylikka yo'naltirilgan model ustun FTC onlayn bozorlardagi adolatsiz amaliyotlarga qarshi keng iste'molchi himoyasi vakolatlaridan foydalanadi. Shu bilan birga Kaliforniyaning CCPA/CPRA kabi shtat darajasidagi maxfiylik qonunlari EU modeliga o'xshash moddiy huquqlar va majburiyatlarni belgilaydi. Bu «mozaika» yondashuv moslashuvchanlik bersa ham, tartibga solishda tarqoqlikni yuzaga keltiradi.

Hindiston 2019-yilgi Iste'molchilar huquqini himoya qilish qonuni va 2020-yilgi Elektron tijorat qoidalari orqali qonuniy bazasini modernizatsiya qildi. Ushbu hujjatlar e-tijorat subyektlariga shaffoflik talablari, shikoyatlarni ko'rib chiqish va bozor mas'uliyati standartlarini belgilaydi. Biroq ijro va chegaralararo tatbiq etilishi amaliy muammoligicha qolmoqda.

Tsagourias va Buchan tomonidan ta'kidlanganidek, kibermakonda xalqaro huquqning tatbiq etilishida asosiy muammo atribut qilish ya'ni, kiberhujumni amalga oshirganni aniqlash masalasidir.[14] Kiberterrorizmni, kiberjosuslikni va kiberjinoyatlarni tartibga soluvchi alohida xalqaro shartnomalar zarurligi tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

### B. Texnologik innovatsiyalarning iste'molchi huquqlariga ta'siri

Yangi texnologiyalar iste'molchi huquqlarini himoyasida ikki tomonlama rol o'ynamoqda. Sun'iy intellect chatbotlar va shaxsiylashtirilgan ko’rsatmalar orqali mijozlarga xizmatni yaxshilaydi, biroq algoritmik noxolis harakatlar va manipulyatsiya xavfini ham tug'diradi. AI tizimlari o’zidagi mavjud ma'lumotlaridagi kamchiliklar tufayli iste’molchilar uchun xavfli amaliyotlarga olib kelishi mumkin.

Blockchain texnologiyasi ta'minot zanjirlari bo'ylab kuzatuvchanlik va ishonchlilikni oshirish uchun brogan sari ko'proq qo'llanilmoqda. Tranzaktsiyalarning o'zgartirib bo'lmaydigan, markazlashmagan yozuvlarini taqdim etish orqali blockchain iste'molchilar haqiqiy mahsulot olishi va manba haqida aniq ma'lumot olishini ta'minlaydi. Bu ayniqsa oziq-ovqat, farmatsevtika va tovarlar sektorlari uchun muhim. Biroq xarajat va masshtablilik muammolari keng qabul qilinishini cheklamoqda.

Ma'lumotlarga asoslangan bozorlarning rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik nafaqat texnik talab, balki asosiy iste'molchi huquqi sifatida borgan sari tan olinmoqda. Shaxsiy ma'lumotlar

---

[13] European Commission. (2026). Consumer protection in virtual worlds. Digital Strategy. https://digital-strategy.ec.europa.eu/policies/virtual-worlds-consumer-protection

[14] Tsagourias, N., & Buchan, R. (Eds.). (2015). Research Handbook on International Law and Cyberspace. Edward Elgar Publishing. https://doi.org/10.4337/9781782547396

buzilishi, ransomware hujumlari va identifikatsion o'g'irlik iste'molchilarga bevosita zarar yetkazadi. GDPR kabi huquqiy tizimlar xavfsizlik kafolatlarini biznes tomonidan iste'molchilarga bo'lgan majburiyatlar sifatida belgilaydi.[15]

**C.** Amaliy holatlar tahlili

**1. Cambridge Analytica mojarosi.** Bu holat raqamli davrda iste'molchi ma'lumotlari qanchalik zaif ekanligini ko'rsatib berdi. Facebook orqali yig'ilgan ma'lumotlar foydalanuvchilarning roziligi olmagan holda siyosiy maqsadlarda ishlatildi. Bunga javob tariqasida Yevropa Ittifoqi GDPR qoidalarini qat'iy tatbiq etdi. Bu holat shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini yanada mustahkamlash zarurligini yaqqol ko'rsatdi.

**2. SolarWinds hujumi.** 2020-yilda tajovuzkorlar SolarWinds Orion dasturiy ta'minotidagi zaiflikdan foydalanib, AQShning bir qancha hukumat idoralari va xususiy kompaniyalarining tizimlariga ruxsatsiz kirishga muvaffaq bo'ldi. Bu voqea davlat va xususiy sektorning raqamli infratuzilmasi qanchalik zaif ekanligini ko'rsatib, kibermudofaa tizimlarini yanada kuchaytirish zarurligiga e'tiborni qaratdi.

**3. Virtual olamlardagi iste'molchi huquqlari.** Yevropa Komissiyasining virtual dunyo bo'yicha hujjatida ta'kidlanishicha, Adolatsiz Tijorat Amaliyotlari Direktivasi, Iste'molchi Huquqlari Direktivasi va Adolatsiz Shartnoma Shartlari Direktivasi kabi huquqiy vositalar virtual dunyolarga ham tatbiq etiladi. Bu holat qonuniylik real va raqamli muhit o'rtasida farqlanmasligini ko'rsatadi.[16]

**D.** O'zbekiston kontekstida tahlil

"Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot va AT ta'limini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Strategiya barcha viloyatlar va tarmoqlar bo'yicha maxsus «Yo'l xaritalari»ni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son qarori raqamli iqtisodiyot rivojini yanada jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi.

Biroq iste'molchilar huquqlarini raqamli muhitda himoya qilishning maxsus normativ mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Tsagourias va Buchan tomonidan ta'kidlangan xalqaro normalar bilan uyg'unlashish GDPR, Budapesht konvensiyasi va BMT ko'rsatmalariga muvofiqlik O'zbekiston uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli huquq bo'yicha mutaxassislar O'zbekistondagi kiber huquqni qonuniy tartibga solish muammolarini alohida o'rganib, maxsus qonunchilik bazasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlamoqda.

## V. KELAJAK YO'NALISHLARI VA TAVSIYALAR

**Xalqaro qonunchilikni uyg'unlashtirish.** Raqamli tranzaktsiyalar milliy chegaralardan o'tib ketganligi sababli, tarqoq huquqiy tizimlar iste'molchilar va biznes uchun noaniqlik keltirib chiqarmoqda. Kelajakda e-tijorat oshkor etilishi, nizolarni hal qilish va ma'lumotlar maxfiyligi bo'yicha izchil standartlarni ta'minlaydigan ko'p tomonlama kelishuvlar yoki majburiy konvensiyalar tatbiq etilishi kerak.

---

[15] FasterCapital. (2025). Consumer Privacy in the Digital Age: Safeguarding Your Data. https://fastercapital.com/content/Consumer-rights-and-protection--Consumer-Privacy-in-the-Digital-Age--Safeguarding-Your-Data.html

[16] European Commission. (2026). Consumer protection in virtual worlds. Digital Strategy. https://digital-strategy.ec.europa.eu/policies/virtual-worlds-consumer-protection

**Sun'iy intellekt va iste'molchi huquqlarini birlashtirish.** Kelajakda huquqiy tizimlar AI boshqaruvi va iste'molchi huquqlari tamoyillarini muvofiqlashtirishi lozim. Bu algoritmik qarorlarning shaffofligi, AI bilan bog'liq zararlar uchun javobgarlik va «dark patterns» kabi manipulyativ amaliyotlarga qarshi kafolatlarni o'z ichiga oladi. Yevropa Ittifoqining AI to'g'risidagi qonuni (EU AI Act) AI tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflash orqali bu masalada yaxshi yo'l-yo'riq bo'la oladi.

**Chegaralararo ijro mexanizmlarini kuchaytirish.** Raqamli tijorat o'z mohiyatiga ko'ra millatlararo, ammo ijro asosan milliy doirada amalga oshirilmoqda. Kelajakdagi yondashuvlar chegaralararo shikoyatlarni ko'rib chiqish, ijro qarorlarini o'zaro tan olish va qo'shma tartibga solish guruhlari tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni talab etadi. YeI ning Iste'molchini himoya qilish hamkorlik tarmog'i global nusxa ko'chirish uchun potentsial model bo'la oladi.

**Iste'molchilarni texnologiya va ta'lim orqali huquqiy bilimlarini oshirish.** Iste'molchilarga kuchli va noyob parollar ishlatish, ko'p faktorli autentifikatsiyani yoqish, maxfiylik sozlamalarini nazorat qilish, VPN va shifrlash vositalaridan foydalanish va qurilmalarni muntazam yangilash kabi amaliy ko'nikmalar o'rgatilishi lozim. Hukumatlar, nodavlat tashkilotlar va korporatsiyalar raqamli huquqlar, xavfsiz to'lov usullari va shikoyat mexanizmlari haqida iste'molchilarni xabardor qiluvchi dasturlarni faol moliyalashtirishi lozim. [17]

## VI. XULOSA

Raqamli asrda iste'molchi huquqlarini himoya qilish murakkab, ko'p qatlamli va doimiy rivojlanishni talab etuvchi soha ekanligini barcha mamlakatlarning mutaxassislari ta’kidlamoqdalar. Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, onlayn firibgarlik, iste’molchilarni adashtiradigan darajadagi reklama va adolatsiz shartnoma shartlari raqamli bozordagi asosiy muammolarga aylanib kelmoqda. Mavjud xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlar bu muammolarga qisman javob bersa ham, tizimli bo'shliqlar saqlanib qolmoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Yevropa Ittifoqi iste'molchi huquqlarini himoya qilishning eng keng qamrovli normativ tizimiga ega, AQSh ijroiylikka asoslangan tarmoq yondashuvini qo'llaydi, Hindiston esa o'zining qonunchilik bazasini modernizatsiya qilmoqda. O'zbekiston uchun esa "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida raqamli muhitdagi iste'molchi huquqlarini maxsus himoya qiluvchi qonuniy mexanizmlar yaratish va xalqaro normalar bilan uyg'unlashish tavsiya etiladi.

Raqamli asrda iste'molchi huquqlarini himoya qilish — bu faqat huquqiy masala emas, balki texnologik, ijtimoiy va axloqiy o'lchamlarga ega keng ko'lamli muammodir. Uni samarali hal etish uchun davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi harakati talab etiladi. Navbatdagi tadqiqotlar sun'iy intellekt, real olam va virtual olam bilan bog'liq yangi iste'molchi muammolarini chuqurroq o'rganishga qaratilishi lozim.

[17] Safeguarding Consumer Rights in the Digital Age: Challenges and Strategies. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/382849320

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (05.10.2020, PF-6079-son). "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. Pattanayak, M., Shankar, A. U., Sahay, E. B., Kamalaveni, M. S., & Jayapriya, K. (2025). Consumer Protection Laws in the Digital Era: Challenges & Future Trends. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5), 3063–3073.
3. Tsagourias, N., & Buchan, R. (Eds.). (2015). Research Handbook on International Law and Cyberspace. Edward Elgar Publishing. https://doi.org/10.4337/9781782547396
4. European Commission. (2026). Consumer protection in virtual worlds. Digital Strategy. https://digital-strategy.ec.europa.eu/policies/virtual-worlds-consumer-protection
5. Safeguarding Consumer Rights in the Digital Age: Challenges and Strategies. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/382849320
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 30.11.2023, PQ-381-son.
7. Allah Rakha, N. (2023). Cyber Law: Safeguarding Digital Spaces in Uzbekistan. International Journal of Cyber Law, 1(5). https://doi.org/10.59022/ijcl.53
8. FasterCapital. (2025). Consumer Privacy in the Digital Age: Safeguarding Your Data. https://fastercapital.com/content/Consumer-rights-and-protection--Consumer-Privacy-in-the-Digital-Age--Safeguarding-Your-Data.html
9. Voigt, P., & Von dem Bussche, A. (2017). The EU General Data Protection Regulation (GDPR): A Practical Guide. Springer.
10. OECD. (2016). Recommendation of the Council on Consumer Protection in E-commerce. Paris: OECD.
11. UNCTAD. (2016). United Nations Guidelines for Consumer Protection (revised). Geneva: United Nations.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.11.2023 yildagi PQ-381-son